


## Iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash – xalqimiz farovonligini oshirishning muhim omili



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 4-avgust kuni 2017-yilgi Investitsiya dasturiga kiritilgan yirik va muhim ahamiyatga ega investitsiya loyihalarini amalga oshirish va yil yakuni bo'yicha kutilayotgan natijalar, shuningdek, davlatimiz rahbarining Andijon viloyati va poytaxtimizning Chilonzor tumaniga tashriflari chog'ida belgilangan vazifalar ijrosiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda Bosh vazir va uning o'rinnbosarlari, Prezidentning Davlat maslahatchilar, tegishli vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari rahbarlari ishtirok etdi. Videokonferensiya aloqasi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, mahalliy hokimliklar, vazirlik va idoralarning hududiy tuzilmalari, korxonalar rahbarlari, tadbirkorlar va investorlar qatnashdi.

Davlatimiz rahbari investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib borishini ta'minlash, yuqori qo'shimcha qiymatli, chuqur qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yangi zamonaviy korxonalarni ishga tushirish – mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, avvalo, aholi hayoti va farovonligi darajasini yanada oshirishning eng muhim omillaridan biri ekanini ta'kidladi.

Prezident huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tashkil etilgani iqtisodiyotimizga investitsiya jalb etish masalasi nechog'li muhim strategik vazifalardan biri ekanini yaqqol namoyon etdi. Yig'ilishda ushbu Agentlik faoliyatini oqilona tashkil qilish, avvalo, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish samaradorligini oshirishga, barcha jarayonlarning ochiq bo'lislarni ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarurligi qayd etildi.

2017-yilgi Investitsiya dasturiga muvofiq, joriy yilda 552 loyiha doirasida 7,2 milliard AQSh dollarini o'zlashtirish va 67 yirik loyihani amalga oshirish belgilangan. Jumladan, 2017-yilning o'zida umumiyligi qiymati 2,4 milliard dollarga teng 170 loyiha, jumladan, 16 yirik loyiha ijrosi yakuniga yetkaziladi.

Faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish natijasida o'tgan 7 oyda 32 loyiha ijrosi yakunlandi, yil oxirigacha yana 138 loyihani amalga oshirib, obyektlarni ishga tushirish yuzasidan barcha zaruriy chora-tadbirlar belgilandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakat miqyosida va joylarda ayrim rahbarlar investitsiya loyihalarini amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammolarni tezkor hal etish va ularni kafolatlangan moliyaviy manbalar bilan ta'minlashga yuzaki, mas'uliyatsizlik bilan yondashayotganiga e'tibor qaratdi.

O'tgan 7 oy mobaynida 27 loyiha bo'yicha mablag'larni o'zlashtirish rejadan ortda qolayotgani, 8 loyiha bo'yicha hujjatlar haligacha tasdiqlanmagani kabi tanqidiy misollar keltirildi.

Shu munosabat bilan tarmoqlar rahbarlari va loyihalar tashabbuskorlari zimmasiga mavjud muammolarni tezlik bilan hal qilish, sustkashlik holatlarini bartaraf etish choralarini ko'rish yuzasidan aniq vazifalar yuklandi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda yuzaga kelayotgan asosiy kamchiliklarga tegishli hujjatlar puxta ishlab chiqilmagani, ko'plab rahbarlar tegishli tarmoqlar va sohalar kelajagi to'g'risida muayyan tasavvurga ega emasligi, ya'nı o'zi boshqarayotgan sohaning bir necha yildan keyingi rivojlanish istiqboli haqida aniq hisob-kitob yuritmayotgani sabab bo'layotganini qayd etdi.

Bosh vazir o'rinnbosarlari, vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalari va hududiy hokimliklar rahbarlariga investitsiya loyihalari ijrosi ustidan haftalik nazoratni yanada kuchaytirish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish va kamchilikka yo'l qo'yan mas'ul shaxslar faoliyatini baholash yuzasidan ko'rilib yuzasidan aniq choralar to'g'risida har oy yakunida hisobot berib borish vazifasi topshirildi.

Yana bir muammo shundan iboratki, investitsiya loyihalari bo'yicha obyektlar ishga tushgani haqida tegishli hujjat qabul qilingandan so'ng yangi quvvatlar qay darajada ishlayotganini tahlil qilish tizimi mavjud emas. Shundan kelib chiqqan holda, davlatimiz rahbari Iqtisodiyot vazirligiga tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda ishga tushirilgan yangi obyektlar faoliyatini monitoring qilish tartibini ishlab chiqish vazifasini yulkadi.

Yig'ilishda Iqtisodiyot vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Moliya vazirligiga yirik xo'jalik birlashmalari va hududiy hokimliklar bilan birga 2018-yilgi Investitsiya dasturini shakllantirishda faqat loyihalashtirish hujjatlari tayyor bo'lgan va qiymati kamida 5 million dollarga teng loyihalarni kiritish, sarmoyadorlarning dasturga loyiha kiritishini rag'batlantirish uchun ularga soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalar berish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Bunda kelasi yil uchun Investitsiya dasturiga faqat puxta ishlab chiqilgan, loyiha-smeta hujjatlari tayyor va moliyalashtirish manbalari aniq bo'lgan investitsiya loyihalarini kiritishga alohida e'tibor berish zarurligi ta'kidlandi.

Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi rahbariyatiga xorijiy hamkorlar bilan teng sheriklik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillari asosida ishlash uchun aniq yo'nalishlarni belgilash, shuningdek, import shartnomalarini tizimli ravishda va o'z vaqtida ko'rib chiqib, xulosa berish yuzasidan alohida tartib-qoidalar ishlab chiqishni tezlashtirish vazifasi topshirildi.

O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan hamkorligini rivojlantirish uchun tuzilgan qator hukumatlararo komissiyalar faoliyatini yana bir bor tanqidiy tahlil qilib, ularning samaradorligini oshirish zarurligi qayd etildi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbarining 2-3-iyun kunlari Andijon viloyatiga hamda 12-aprel kuni Toshkent shahrining Chilonzor tumaniga tashriflari natijasiga binoan rasmiylashtirilgan bayonnomalar va qabul qilingan dasturlarda belgilangan topshiriqlar ijrosining borishi ham muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida mazkur bayon va dasturlarni amalga oshirishning joriy holatini bosqichma-bosqich ko'rib chiqib, ijrochilar hisobotini tinglash va baholash bo'yicha yangi nazorat tizimi joriy etilishi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va uning o'rinnbosarlariga Andijon viloyati va Chilonzor tumanini, umuman, barcha hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini tizimli ravishda o'rganib, birorta ham muammoli masala qoldirmaslik yuzasidan aniq ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda Vazirlar Mahkamasi komplekslari, vazirliklar, idoralar, kompaniyalar, uyushmalar va hokimliklar rahbarlarining hisobotlari va takliflari tinglanib, muhokama qilindi hamda investitsiya loyihalari ijrosini jadallashtirish va mavjud muammolarni hal etish yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

**O'zA**